

**XAN DAVRIDA XITOIYNING MARKAZIY OSIYO XALQLARI BILAN
SAVDO – DIPLOMATIK ALOQALARI TARIXI (MILODDAN AVVALGI II
ASR - MILODIY II ASR).**

Ilmiy rahbar: Karimova Natalya Ermanovna

Tarix fanlari doktori, professor.

Email: sharq_ilmiy@mail.ru

Muallif: Qambaraliyeva Moxigul Murotali qizi

TDSHU, 1-bosqich magistranti.

Email: qambaraliyevamohigul@gmail.com

Orcid: <https://orcid.org/0009-0006-7817-0968>

Annotatsiya

Ushbu maqola miloddan avvalgi II asr - milodiy II asrlarda Markaziy Osiyo va Xitoy o'rtasidagi savdo – diplomatik aloqalarni tarixini o'rganadi. Tadqiqotda Xitoy va Markaziy Osiyo o'rtasidagi aloqalar qachon va qanday boshlanganligi, munosabatlarning rivojlanganligi, ikki hudud o'rtasidagi mahsulotlar ayirboshlanishi tahlil qilinadi. Xitoy elchisi Chjan Szyan faoliyati, Buyuk Ipak yo'lining shakllanishi va ikki mintaqa o'rtasidagi iqtisodiy hamda madaniy munosabatlarning rivojlanish bosqichlari yoritilgan. Tadqiqot natijasida bu davrda Xitoy va Markaziy Osiyo o'rtasidagi hamkorlik mintaqaviy integratsiya va madaniy aloqalarning kuchayishiga xizmat qilgani aniqlangan.

Kalit So'zlar: Xan sulolasi, Markaziy Osiyo, Buyuk Ipak yo'li, Chjan Szyan (Zhang Qian), Xitoy tashqi siyosati, savdo aloqalari, diplomatik munosabatlar, qadimgi davlatlar, madaniy almashinuv, iqtisodiy integratsiya.

Abstract

This article examines the history of trade and diplomatic relations between Central Asia and China during the 2nd century BCE to the 2nd century CE. The study analyzes when and how the relations between China and Central Asia began, how they developed, and the nature of the exchange of goods between the two regions. It highlights the activities of the Chinese envoy Zhang Qian, the formation of the Great Silk Road, and the stages of economic and cultural relations between the two regions. The research concludes that during this period, cooperation between China and Central Asia contributed to regional integration and the strengthening of cultural ties.

Keywords: Han dynasty, Central Asia, Silk Road, Zhang Qian, Chinese foreign policy, trade relations, diplomatic ties, ancient states, cultural exchange, economic integration.

Kirish

Miloddan avvalgi II asrdan milodiy II asrgacha bo'lgan davr Xitoy va Markaziy Osiyo xalqlari o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy aloqalarning shakllanishi va rivojlanishida muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Aynan shu davrda Xitoyda hukmronlik qilgan Xan sulolasi tashqi siyosatda faol yo'nalish olib borib, g'arbiy o'lkalarga, ya'ni hozirgi Markaziy Osiyo hududlariga elchilar yuborish, savdo yo'llarini barqarorlashtirish va diplomatik munosabatlarni o'rnatishga intildi.

Xan davlatining siyosiy manfaatlari, ayniqsa, shimoliy ko'chmanchi syunnular (xunlar) bilan olib borilgan uzoq davomli kurashlar natijasida G'arbiy mamlakatlar bilan ittifoq tuzish zaruratini keltirib chiqardi. Shu maqsadda mil. avv. II asrda elchi **Chjan Syanning** (Zhang Qian) Markaziy Osiyoga safari Xitoy diplomatik tarixining burilish nuqtasiga aylandi. Uning sayohati natijasida Dayuan (Farg'ona), Kangju (Sirdaryo vodiysi), Yuezhi va boshqa mamlakatlar haqida muhim ma'lumotlar to'plandi hamda Xitoyning "G'arbiy o'lkalarga yo'li" — keyinchalik "Buyuk ipak yo'li" deb nom olgan yo'lining shakllanishiga asos solindi.

Mazkur davrda Markaziy Osiyo xalqlari va Xitoy o'rtasidagi aloqalar faqat siyosiy-diplomatik emas, balki iqtisodiy va madaniy jihatdan ham ikki tomonlama manfaatli bo'lib, ipak, ot, oltin, qimmatbaho toshlar, temir buyumlar va boshqa tovarlarning ayirboshlanishi orqali savdo aloqalari kengaydi. Shu tariqa, Xan davrida boshlangan bu munosabatlar keyinchalik Sharq va G'arb sivilizatsiyalarini bog'lab turgan global madaniy-iqtisodiy tizimning negiziga aylandi.

Adabiyotlar tahlili

Markaziy Osiyo tarixini o'rganishda Buyuk Ipak Yo'li aloqalari katta ahamiyatga ega. Ushbu mavzuda olib borilgan tadqiqotlar turli davrlar va olimlar nuqtai nazarini aks ettiradi. O'. Mavlonov (2016) monografiyasida Markaziy Osiyoning qadimiy yo'llarining rivojlanish bosqichlarini tahlil qiladi. Muallif yo'llarning iqtisodiy va madaniy ahamiyatini ta'kidlab, mintaqaning tarixiy rivojini keng yoritadi.

Qadimiy manbalardan biri bo'lgan N. Bichurin (1998) Markaziy Osiyo xalqlari va ularning turmush tarzi haqida batafsil ma'lumot beradi. Uning asari qadimiy manbalarga asoslangan bo'lib, zamonaviy tadqiqotlar uchun muhim asos hisoblanadi. Shuningdek, Berdimurodov va Indiaminova (2017) Buyuk Ipak Yo'lining tarixiy va geografik jihatlarini keng qamrab, turli asrlar osha savdo aloqalarini tahlil qiladi.

E. Rtvelladze (1999) yo'lining strategik ahamiyatini ta'kidlab, uning tarixiy va geografik xususiyatlarini o'rganadi. A. Xodjayev (2004, 2005) esa Farg'ona vodiysi va Xitoy savdo aloqalariga alohida e'tibor qaratib, mahalliy shahar-davlatlar va savdo markazlari tarixini tahlil qiladi. Ushbu tadqiqotlar birgalikda Markaziy Osiyo yo'llari va savdo aloqalarining kompleks tarixini tushunishga yordam beradi.

Shuningdek Markaziy Osiyo xalqlari tarixini tadqiq etishda Xitoy yozma manbalari muhim ahamiyatga ega. Ushbu yo'nalishda A.A. Madraimov va A.K.

Ametovanning (2022) tadqiqoti Xitoy manbalaridan foydalanishning metodologik asoslarini yoritadi. Mualliflar Xitoy solnomalari va tarixiy asarlarining Markaziy Osiyo xalqlari, shahar-davlatlari va siyosiy tuzilmalari haqidagi ma'lumotlarini umumlashtirgan holda tahlil qiladilar.

Tadqiqotda manbashunoslik va tarixiy-taqqoshlama metodlar asosiy o'rin egallaydi. Mualliflar Xitoy manbalaridagi ma'lumotlarni tanqidiy baholash, ularni boshqa yozma va arxeologik manbalar bilan solishtirish zarurligini ta'kidlaydi. Shuningdek, terminologik va tarjima masalalari metodologik muammo sifatida ko'rib chiqiladi.

Adabiyotlarni umumiy tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, zamonaviy va qadimiy manbalarning uyg'unligi Markaziy Osiyo va Buyuk Ipak Yo'li tarixini kompleks o'rganishda muhimdir. Mavjud tadqiqotlar yo'llar tarixi, mintaqaviy aloqalar va savdo munosabatlarini har tomonlama tahlil qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, ba'zi qadimiy manbalar ma'lumotlari zamonaviy tadqiqotlar bilan to'liq mos kelmasligi mumkin, bu esa ilmiy bahs va qo'shimcha tadqiqotlar uchun imkoniyat yaratadi.

Asosiy qism

Miloddan avvalgi II asrdan boshlab Xitoy davlati, xususan **Xan sulolasi** davrida (mil. avv. 206 – mil. 220-yillar) tashqi siyosatda faol harakat boshladi. Aynan shu davrda Xitoyning Markaziy Osiyo xalqlari bilan savdo, siyosiy va madaniy aloqalari kengaydi. Bu jarayon **Buyuk Ipak yo'lining** shakllanishi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u Sharq va G'arb o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirgan.

Mazkur aloqalar Xitoyning iqtisodiy manfaatlari, harbiy xavfsizligi va xalqaro nufuzi bilan uzviy bog'liq edi. Shu sababli Xan davri Xitoy–Markaziy Osiyo munosabatlarining shakllanishida hal qiluvchi davr bo'lib xizmat qildi.

Xitoy va O'rta Osiyo o'rtasidagi dastlabki aloqalar, mil. avv. I ming yillik o'rtalaridan boshlab Xitoy ipak buyumlarini g'arbiy o'lkalarga chiqarila boshlangan, shu munosabat bilan savdo yo'llari yo'nalishlari shakllana boshlagan edi. (Мавлонов Ў. М. 2016. 106-107-6)

“Mazkur savdo yo'llarining shakllanishida Xitoyda ipak ishlab chiqarishning vujudga kelishi hal qiluvchi omil bo'ldi. Chunki ipak qadimdan Xitoyning eng mashhur va qadrlangan mahsuloti bo'lib, aynan u orqali mamlakat tashqi dunyo bilan iqtisodiy aloqalarni o'rnatgan. Endi ipakning paydo bo'lishi va uning dastlabki ishlab chiqarish jarayonlariga nazar tashlaymiz.

Ko'pchilik olimlar Xitoy ipagi bundan 5-7 ming yillar ilgari paydo bo'lgan, degan fikrni ilgari surishadi va bunga Xitoy xalqi orasida tarqalgan har xil rivoyatlarni keltirishadi. Xitoyda tarqalgan rivoyatlardan birida ipakning ijodkorlari sifatida imperator Xoang-tining xotini, malika Si Lingchini tilga oladilar. Malika tut daraxtining tagida choy ichib o'tirganida uning piyolasiga daraxtdan pilla donasi

tushadi. Malika pillani choydan olish uchun chikib turgan tolasidan sekin tortadi. Tola asta-sekin tarkalib boraveradi va uzun ipga aylandi. Shu tariqa ipak tolasini kashf qilinadi. Bu xizmatlari uchun malika ma'buda darajasiga ko'tariladi va hozirga qadar Xitoyning ayrim o'lkalarida uning sharafiga bag'ishlab marosimlar o'tkaziladi.

Ayrim olimlar ipak dastlab Hindistonning tog'li hududlarida paydo bo'lgan, deb hisoblaganlar, ayrimlar ipak dastlab G'arbiy Himolayda paydo bo'lgan, degan taxminlarni ilgari suradilar. Ammo ko'pchilik olimlar ipak dastlab Shimoliy Xitoyda paydo bo'lgan, degan fikrdalar". (Бердимуродов А, Индиаминова III 2017 23-25-б)

Lekin ipak yetishtiruvchi asosiy mamlakat bo'lgan Xitoyni "G'arbiy o'lkalar" bilan bog'lovchi aloqa yo'llarining savdo va diplomatiya yo'llari sifatidagi doimiy faoliyati shakllanishi faqat mil. avv. II asr o'rtalarida, Markaziy Osiyoda vujudga kelgan geosiyosiy vaziyatga bog'liq holda boshlandi. Xitoyning Xan sulolasi davrida, aniqrog'i, Imperator U-Di hukmronligi davrida (mil. avv. 140-87 йй.) olib borilgan tashqi siyosatida ko'chmanchi xunnlarga qarshi kurashda harbiy-siyosiy ittifoqchilar topish maqsadida "G'arbiy o'lkalar" bilan aloqalar o'rnatishga ham katta e'tibor qaratildi. Bu intilish Xitoy uchun "G'arbiy o'lkalar"ning va ularga olib boruvchi yo'llarning kashf qilinishiga, ular orqali Markaziy Osiyo va boshqa mamlakatlar, xususan, Parfiya, Hindiston va Rim imperiyasi bilan izchil aloqalarining boshlanishiga olib keldi. Bu aloqalarga va aloqa yo'llari faoliyatiga Xan imperiyasining poytaxtidan chiqqan karvon va unga boshchilik qilgan elchi Chjan-Szyan asos soldi. Xitoyning g'arbidagi o'lkalarga 13 yil davomida qilgan "sayohati" natijasida u O'rta Osiyodagi Usunlar yurti, Davan va Qang' davlatlari, Katta Yuechji (Kushonlar davlati), Daxya (Baqtriya), Ansi (Parfiya), Yansay kabi o'lkalar haqida, ularning shaharlari va savdo yo'llari to'g'risida muhim ma'lumotlar to'plashga erishdi (Бичурин Н.Я., 1998, С. 151-158). Bu elchi kashf qilgan va keyingi davrlarda yangi-yangi yo'nalishlari va tarmoqlariga asos solingan aloqa yo'llari bo'ylab xitoy ipagi va boshqa mahsulotlari O'rta Osiyo hududi orqali O'rta Yer dengizi bo'yidagi savdo shaharlarigacha yetib bora boshlaydi. Shu tariqa, tarixga "Buyuk ipak yo'li" nomi bilan kirgan xalqaro tranzit aloqa yo'li faoliyati boshlandi.

Xitoy yozma manbalariga ko'ra, Xitoydan G'arbiy hududga ikkita asosiy yo'l olib borgan: janubiy va shimoliy. (Ртвеладзе Э.В., 1999, с. 120)

Janubiy tarmog'i (Nandao) quyidagi yo'nalishda – Yuy-min-guan (Yanguan) – Shan-shan – Lobnar ko'li (Tuzliko'l) – Kun Lun (Janubiy tog')ning shimoli – daryo bo'ylab G'arbga – Shag' (Yorkent) – Vohan dovoni – Badaxshon o'lkasi. Bu yerda yo'l ikki tarmoqqa bo'linib: a) Katta Yuejlar yurti (Baqtriya) va Ansu (Parfiya)ga hamda b) Hindistonga olib borgan.

Buyuk ipak yo'lining Shimoliy tarmog'i (Beydao) Markaziy Osiyoning ichki hududlari orqali o'tgan. G'arbiy Chesh hokimi qarorgohidan boshlangan bu yo'nalish "Shimoliy tog'" – Tyan-Shanning sharqiy tizmalari yon bag'irlari bo'ylab daryo oqimi

yo‘nalishida Qashg‘arga, Tyan-Shan tog‘idagi Terek dovoni orqali Davan (Farg‘ona)ga, Qang‘ga, Yansay va Ansiga (Yansiga) olib kelgan.

Bu yo‘llarning barchasi Xan Xitoy poytaxti, Pekinning g‘arbida joylashgan Chang‘an shahridan boshlangan. Ularning eng muhim chorrahasi Dunxuan (zamonaviy Gansu provinsiyasida) bo‘lib, u yerdan ular turli yo‘nalishlarga burilishgan. (Мавлонов Ў. М. 2016. 108-6)

G‘arbiy o‘lkalar bilan siyosiy va iqtisodiy aloqalar o‘rnatishga intilgan xitoyliklar 121-yilda xunlar ustidan g‘alaba qozongach, imperiyaning g‘arbiy chegaralarida yo‘llar va ularni qo‘riqlashga mo‘ljallangan mustahkam istehkomlar barpo eta boshlaydilar. Bu davrdan boshlab, manbalarining dalolat berishicha, Xitoy imperatorlari tomonidan G‘arbiy o‘lkalarga (Davan, Ansi, Yansay va boshqalar) yiliga besh-olti, ba‘zi yillarda o‘n martadan ko‘proq yirik (tarkibida bir necha yuz kishi) va kichik (yuzdan oshiq kishi) elchilik missiyalari yuborilgan. Qadimgi Xitoy manbalaridagi ma‘lumotlarni tahlil qilib ular oldiga G‘arbiy o‘lkalar to‘g‘risida harbiy-siyosiy ahamiyatga ega razvedka ma‘lumotlari to‘plash, aloqa-savdo yo‘llari yo‘nalishlari va ularning havfsizligi masalasini, iqtisodiy-savdo aloqalarini o‘rnatish imkoniyatlarini o‘rganish va hatto mahalliy hukmdorlarni Xitoy imperatoriga tobelikka ko‘ndirishga intilish kabi katta strategik vazifalar qo‘yilganligi haqida xulosa chiqarish mumkin. (Бичурин Н.Я., 1998, с. 162)

Dunxuanning favqulodda strategik ahamiyati uning shimolida va shimoli-g‘arbida Buyuk Xitoy devorining oxirgi qismlari o‘tib, shaharni ko‘chmanchi bosqinlardan himoya qilgani bilan tasdiqlanadi. Dunxuan nafaqat Xitoydan G‘arbiy mintaqaga yoki aksincha G‘arbdan Chang‘anga olib boradigan Buyuk Ipak yo‘lining oxirgi qismini kesib o‘tishdan oldin karvonlar uchun to‘xtash joyi bo‘lib xizmat qilgan, balki turli mamlakatlardan kelgan odamlar, jumladan, sug‘dliklar uchun doimiy yashovchi ham bo‘lgan. Dunxuan yaqinida Aurel Steyn Buyuk devorning qo‘riqlash minorasida mashhur sug‘d yozuvlarini topdi. (Ртвеладзе Э.В., 1999, С 15-20)

Buyuk Ipak yo‘lining Xitoydan O‘rta Osiyoga kiruvchi yo‘nalishlarida dastlabki hudud sifatida Farg‘ona vodiysi muhim o‘rin tutgan. Ushbu hudud orqali o‘tgan tranzit savdo yo‘llari yo‘nalishlari bo‘yicha keyingi yillarda qator yangi ma‘lumotlar aniqlangan. Bu ma‘lumotlarning tahlili Farg‘ona vodiysidagi yirik shaharlarning transmintaqaviy aloqa yo‘llaridagi o‘rni va ahamiyatini aniqlash imkonini beradi.

Xitoy manbalariga ko‘ra, o‘sha davrda Davan davlatida 70 dan ortiq shahar mavjud bo‘lgan. Ushbu shaharlar Buyuk Ipak yo‘li bo‘ylab joylashgan yoki u bilan mahalliy yo‘llar tizimi orqali bog‘langan edi. Bu shaharlar Ipak yo‘lining dastlabki shakllanish davrlaridan boshlab Farg‘ona vodiysining muhim iqtisodiy va madaniy markazlari sifatida mintaqaning ichki hamda tashqi aloqalarida faol ishtirok etib kelgan.

Xitoy manbalarining yangi tahliliga asoslanib, ayrim tadqiqotchilar Fargʻona vodiysining sharqida joylashgan Yuychen shahri Xitoydan Yettisuv orqali keluvchi savdo yoʻlidagi birinchi shahar boʻlganini, uning hozirgi Oʻzgan shahri oʻrnida joylashganini taʼkidlaydilar. Keyingi muhim shahar — koʻpchilik manbalarda Davan davlatining poytaxti sifatida tilga olingan Ershi shahri — hozirgi Oʻsh shahri oʻrnida joylashgan deb hisoblanadi.

Fargʻona vodiysida bu davrga oid deb qaralayotgan yodgorliklar asosan Yassi, Qurshob, Qoradaryo, Qorasuv va Kugart vohalarida topilgan. Ular orasida Oʻzgandan 10 km shimoli-gʻarbda joylashgan, maydoni 70 gektarga teng Shoʻrabashat yodgorligi alohida ahamiyatga ega. Tadqiqotchilar fikriga koʻra, ushbu yodgorlik yuqorida qayd etilgan Yuychen shahri xarobalari boʻlishi mumkin.

Xitoyliklar oʻzlarining eng mashhur mahsuloti — ipakni Markaziy Osiyo, Eron va Rim savdogarlarining oltin, kumush, ot, shisha buyumlariga almashtirgan. Markaziy Osiyo aholisi esa ot, charm, qimmatbaho toshlar, paxta va don mahsulotlarini Xitoy ipaklari hamda Hindiston ziravorlariga ayirboshlagan. Shu tariqa, turli mintaqalarda ishlab chiqarilgan tovarlar oʻzaro almashilib, xalqaro savdoning ilk shakli vujudga kelgan.

Fargʻona vodiysi Buyuk Ipak yoʻlining muhim markazlaridan biri boʻlgan. Fargʻona vodiysidagi shaharlar haqida, ayniqsa, Xitoy tarixiy yilnomalarida muhim maʼlumotlar saklanib kolgan. Xitoy tarixiy yilnomalarida qayd etilishicha, Fargʻona vodiysida asosan sugʻorma dehqonchilik yaxshi rivojlangan boʻlib fargʻonaliklar uzum, guruch, galla va beda yetishtirishda juda mohir boʻlishgan. Fargʻonaning “qon terlaydigan, samoviy otlari” Xitoyda ham juda mashhur boʻlgan. Xitoy imperatorlari bu otlarni qoʻlga kirgizish uchun har qanday boylikni xam ayamaganlar. Fargʻona orqali oʻtgan yoʻllar Sharqdan keluvchi ipak, chinni, choy va boshqa tovarlarning Oʻrta Osiyo hamda Gʻarbga yetkazilishida vositachi rolini oʻynagan.

Yozma manbalar (xitoy, arab, sugʻd)ga qaraganda, Markaziy Osiyo ikki daryo oraligʻida markaziy oʻrinni egallagan Sugʻd milodning ilk asrlaridanoq xalqaro karvon savdosida faol ishtirok eta boshladi. Butun Buyuk ipak yoʻli boʻylab Hindistondan to Xitoyga qadar yirik-yirik sugʻd koloniyalari vujudga kelgan. Xitoyning oʻzida esa sugʻdliklar koloniyalari milodning dastlabki asrlarida paydo boʻlgan. Sugʻdlik savdogarlar mugʻanniylar, koʻzboylagʻichlar, akrobatlar bozingerlar, raqqoslarni deyarli har yili Xitoyga karvonlar bilan birga olib kelishgan.(Бердимуродов А, Индиаминова III 2017 26-35 б)

Sugʻdning Buyuk ipak yoʻlidagi ulkan xizmatlari, sugʻd savdogarlari va xunarmandlarini bu yoʻlni rivojlantirish borasida chekkan zahmatlari haqida juda koʻp yozilgan. Hattoki Sugʻd tili Buyuk ipak yoʻlida xalqaro til vazifasini oʻtagan.

Buyuk ipak yo‘li orqali sug‘diylarning hunarmandchilik buyumlari, turli-tuman savdo mahsulotlari, madaniyati va shu bilan birga musiqa madaniyati ham Sharqiy Turkiston, Xitoy, Koreya va hatto Yaponiyagacha yetib borgan.

Buyuk Ipak yo‘lida mahsulot ayirboshlanishi tufayli iqtisodiy aloqalarni mustahkamladi – Turli mintaqalar o‘zaro bog‘lanib, savdo orqali rivojlandi. Madaniy almashinuvni kuchaytirdi – Savdogarlar orqali turli xalqlarning urf-odatlarini, diniy e‘tiqodlari va san‘ati yoyildi. (Бердимуродов А, Индиаминова III 2017 49-55 б)

Xulosa

Xan sulolasi davrida (mil. avv. II asr – mil. II asr) Xitoy va Markaziy Osiyo xalqlari o‘rtasidagi savdo-diplomatik aloqalar Sharq bilan G‘arbni bog‘lovchi tarixiy jarayon sifatida o‘zining chuqur izini qoldirdi. Bu davrda Xitoy tashqi siyosatida “G‘arbiy o‘lkalarga chiqish” konsepsiyasi shakllanib, Chjan Syan missiyasi orqali Markaziy Osiyo bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalar o‘rnatildi. Natijada, “Buyuk ipak yo‘li”ning ilk shakli yuzaga kelib, u nafaqat iqtisodiy almashinuv, balki madaniy, diniy va texnologik g‘oyalar tarqalishining asosiy yo‘nalishiga aylandi.

Markaziy Osiyo xalqlari bu jarayonda vositachi va faol ishtirokchi sifatida chiqishib, Xitoy, Hindiston, Eronga va Rim imperiyasiga boruvchi savdo yo‘llarining markazida joylashgani sababli mintaqaning xalqaro nufuzi oshdi. Shu tariqa, Xan davri Xitoy-Markaziy Osiyo munosabatlarining shakllanishida poydevor bo‘lib, keyingi asrlarda Ipak yo‘li tizimi orqali amalga oshgan sivilizatsiyalararo muloqotning asosini yaratdi.

Xan davrida Xitoyning Markaziy Osiyo bilan aloqalarini faqat iqtisodiy manfaat emas, balki harbiy-strategik zarurat ham belgilab berdi. Xususan, xunnlar (xunlar) tahdidiga qarshi Markaziy Osiyo davlatlari bilan ittifoq tuzish Xitoy uchun g‘arbiy chegaralarda xavfsizlikni ta‘minlash vositasi bo‘ldi. Shu orqali Xan imperiyasi nafaqat o‘z hududiy xavfsizligini mustahkamladi, balki o‘zining geosiyosiy ta‘sir doirasini kengaytirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мавлонов, Ў. М. **Марказий Осиёнинг қадимги йўллари: шаклланиши ва ривожланиш босқичлари.** – Монография. – Тошкент: Фан, 2016.
2. Бичурин Н.Я (Иакинф)., Собрание сведение о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. В трех частях. – Алмата.: ТОО “Жалын Баспасы”, 1998. – Ч. II.
3. Бердимуродов А, Индиаминова III Буюк ипак йўли (Китъалар ва асрлар оша). – Тошкент: “O‘zbekiston” NMIU, 2017.
4. Ртвеладзе Э.В., Великий Шелковый путь. – Ташкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат нашриёти, 1999.
5. Ходжаев А., Фарғона водийсининг Хитой билан савдо алоқалари // Мозийдан садо. – Тошкент., 2005.

6. Ходжаев А., 2004. Сведения древних китайских источников о городах-государствах Фергана (Дайюань) // Буюк ипак йўли ва Фарғона водийси: Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Ташкент., 2004.
7. A.A. Madraimov, & A.K. Ametova. (2022). A BRIEF REVIEW OF CHINESE SOURCES ON THE HISTORY OF THE PEOPLES OF CENTRAL ASIA. Oriental Journal of Social Sciences, 2(06), 96–99. <https://doi.org/10.37547/supsci-ojss-02-06-014>.

